

O'ZBEKISTONDA "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI VA UNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

*Ismoiljon ABDUMANNOPOV
Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi tinglovchisi*

Annotatsiya O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni samarali foydalanish va iqtisodiy rivojlanishni barqarorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks strategiyadir. Bu strategiyaning asosiy yo'nalishlari qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza texnologiyalarni tatbiq etish, barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdan iborat.

Ushbu strategiyaning rivojlanish tendensiyalari, global iqtisodiy va ekologik o'zgarishlarga javoban va mamlakatning ixtiyoriy ekologik siyosatlari bilan bog'liq. Bular qayti tiklanuvchi energiyaga investitsiyalar, yuqori texnologiyalarni joriy qilish, va ekologik moliyalashtirish kabi sohalardagi ijobiy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodyot, ekologiya, atrof-muhit, ekologik jarayon, chiqindilarni qayta ishslash, investitsiyalar, iqtisodiy o'sish muammolari, samaradorlik.

СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К "ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ" И ТЕНДЕНЦИИ ЕЁ РАЗВИТИЯ

Абстрактный Переход Узбекистана к "зелёной экономике" является комплексной стратегией, направленной на охрану окружающей среды, эффективное использование природных ресурсов и обеспечение устойчивого экономического развития. Основными направлениями этой стратегии являются развитие возобновляемых источников энергии, повышение энергоэффективности, внедрение экологически чистых технологий, развитие устойчивого сельского хозяйства и рациональное использование природных ресурсов.

Тенденции развития этой стратегии связаны с глобальными экономическими и экологическими изменениями, а также с добровольной экологической политикой страны. Это включает в себя позитивные изменения в таких областях, как инвестиции в возобновляемую энергию, внедрение новых технологий и экологическое финансирование.

Ключевые слова: зеленая экономика, экология, окружающая среда, экологический процесс, переработка отходов, инвестиции, проблемы экономического роста, эффективность.

UZBEKISTAN'S STRATEGY FOR TRANSITIONING TO "GREEN ECONOMY" AND ITS DEVELOPMENT TRENDS

Abstract Uzbekistan's transition to a "green economy" is a comprehensive strategy aimed at protecting the environment, efficiently using natural resources, and ensuring

sustainable economic development. The main directions of this strategy include the development of renewable energy sources, increasing energy efficiency, implementing environmentally clean technologies, developing sustainable agriculture, and rational use of natural resources.

The development trends of this strategy are related to global economic and ecological changes, as well as the country's voluntary environmental policies. These include positive changes in areas such as investment in renewable energy, the implementation of new technologies, and ecological financing.

Key words: green economy, ecology, environment, environmental process, waste recycling, investments, economic growth problems, efficiency.

O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta’minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o‘zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag‘al guruhlariga maqsadli yordam ko‘rsatish kabi yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta’siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog‘liq yangi g‘oyalar va yondoshuvlarning shakllanishiga olib keldi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar ichida va avlodlar o‘rtasida tenglikni ta’minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Mamlakatimizda “Yashil iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrda tasdiqlangan “2019-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” muhim dasturiy amal hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste’mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan o‘n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta’minotidan foydalanish ta’minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg‘i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.

Milliy iqtisodiyotni barkaror rivojlantirishning amaliy yo‘nalishi sifatida “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning nazariy asoslarini ochib berish, jahonda “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish va “yashil o‘sish”ni ta’minlash borasida to‘plangan boy, ilgor tajribani qiyosiy taxlil etish. “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini chuqur tahlil qilish vazifalari belgilangan. “Yashil iqtisodiyot”ning amal qilish mexanizmi va rivojlanish qonuniyatları, O‘zbekiston iqtisodiyotini “Yashil

“iqtisodiyot” tamoyillari asosida rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liq masalalarni kompleks, tizimli yondashuv negizida ko‘rib chiqish vazifasini qo‘ygan.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi quyidagi yo‘nalishlar va ilmiy g‘oyalarni o‘z ichiga oladi:

- resurslarni tejashga yo‘naltirilgan iqtisodiyot,
- ekologik iqtisodiyot,
- atrof-muhit iqtisodiyoti,
- yashil siyosat,
- xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi,
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash,
- innovatsion iqtisodiyot.

Ushbu yo‘nalishlar yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillarini shakllantiradi.

Yashil iqtisodiyot fan sifatida o‘z shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlariga ega. Tabiiy resurslarning cheklanganligi va ularning qayta tiklanmasligi bilan bog‘liq muammolar insoniyatning barcha faoliyat yo‘nalishlariga, xususan iqtisodiy faoliyatga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu muammolarni ilmiy o‘rganish XX asrning 60-70-yillarda keng ommalasha boshladi. Shu davrda iqtisodiy adabiyotlarda an’anaviy iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yangi "atrof-muhit iqtisodiyoti" yo‘nalishi paydo bo‘ldi.

Ushbu yo‘nalishda iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta’siri natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar eksternallar, ya’ni tashqi samaralar sifatida talqin qilina boshladi. Shu asosda ekologik muammolarni amaldagi iqtisodiy munosabatlar doirasida hal etish va xalqaro miqyosda umumlashtirish zaruriyati tug‘ildi. Masalan, atmosferaga chiqarilayotgan issiqxonalar gazlari uchun xalqaro savdo tizimini tashkil etish masalasi bunga misol bo‘la oladi.

O‘zbekistonda uzoq muddatli istiqbolda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalarga muvofiqlik;
- resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste’mol va ishlab chiqarish;
- iqtisodiy hisob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun “yashil” vositalar va yondashuvlarni qo‘llash ustuvorligi;
- milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish va ko‘rsatkichlarni yaxshilash, “yashil” ish o‘rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish;
- resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta’minlash.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan maqsad va vazifalarga erishish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilash bilan bir vaqtda “yashil” iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tish imkonini yaratadi. Milliy iqtisodiyotni “yashillashtirish” tabiiy resurslarni chuqur qayta ishslash orqali yuqori qo‘silgan qiymatga ega mahsulotlar eksporti miqdorini oshirish, tarkibini

diversifikatsiyalash va milliy kompaniyalarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

1-jadval

2019-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari

2019-2030 YILLARDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH STRATEGIYASI			
Ustuvor yo‘nalishlar			
Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish	Energiya resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish	Iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash	“Yashil” iqtisodiyotni qo’llab quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish
Sohalar			
Elektr energetika Issiqlik energetikasi Neft va gaz sanoati Kimyo sanoati	Muqobil energiya manbalari Binolarni qurish va ulardan foydalanish Transport Qurilish materiallari ishlab chiqarish	Suv, qishloq va o’rmon xo‘jali klari Qattiq maishiy chiqindilar ni boshqarish Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish	Yashil texnologiyalarni joriy etishning institutsional asoslarini rivojlantirish “Yashil iqtisodiyot”ning huquqiy baza si ni takomillashtirish Energiya samaradorligini oshirish mexanizmini rivojlantirish “Yashil iqtisodiyot tamoyillarini ta’lim va fanga integratsiyalash

2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasining to‘rtta ustuvor yo‘nalishlar belgilangan bo‘lib asosiy e’tibor energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘zlashtirish, iqlim o‘zgarishlari oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilganligini kuzatish mumkin.

Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda energiya resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish ikkinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu maqsadga erishishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘zlashtirish, binolarni qurish va ulardan foydalanish, transport sohasi hamda qurilish materiallari ishlab chiqarishda energiya iste’molini diversifikatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

2030 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish hisobiga ushbu energiya manbalari ulushini umumiy elektr energiya ishlab chiqarish hajmining 25%idan ko‘prog‘iga yetkazish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining zamonaviy, arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkoniyatini 100%ga yetkazish vazifalari belgilangan.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi nafaqat iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini yaratishga, balki atrof-muhitni himoya qilish va barqarorlikni ta‘minlashga ham qaratilgan. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun kompleks yondashuv, davlat, biznes va jamiyatning birgalikda ishslashini talab qiladi.

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, va ekologik toza texnologiyalarni kengaytirish orqali iqtisodiyotning o‘sishini ta‘minlashni ko‘zda tutadi. Bundan tashqari, bu strategiya, yangi investitsiyalarni jalg qilish, ekologik moliyalashni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishni taqozo qiladi.

Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o‘tish ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega, chunki bu jarayon ekologik ta’sirlarni kamaytirish bilan birga, aholi turmush darajasini oshirish, barqaror ish o‘rinlarini yaratish va jamiyatning farovonligini ta‘minlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o‘tishning muvaffaqiyati faqatgina davlat siyosati, texnologik innovatsiyalar va iqtisodiy tadbirlarga bog‘liq emas, balki jamiyatning keng qatlamlarini ushbu jarayonlarga jalb qilishga, ularni ekologik ongga oshirishga, atrof-muhitni muhofaza qilishni targ‘ib qilishga ham bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotga o‘tish – bu nafaqat iqtisodiy va ekologik manfaatlarni ta‘minlash, balki kelajak avlodlar uchun barqaror va farovon dunyo yaratishning muhim yo‘li hisoblanadi. O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni, xalqaro tajribalarni hisobga olib, ichki imkoniyatlar va resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlab, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Adrian C. Newton. An Introduction to the Green Economy: 1st Edition. Routledge, 2014. - 382 p.

2. Green economics: An introduction to theory, policy and practice / Molly Scott Cato. London • Sterling, VA. 2009. - 670 r.
3. Greening the Global Economy (Boston Review Originals) Hardcover – November 13, 201 - 176 p.
4. Miriam Kenne, Michelle Gale De Oliveira. Greening the Global Economy: Reform and Transformation. The Green Economics Institute, 2013. - 350 p.
1. Sevil Acar, Erinc Yeldan. Handbook of Green Economics: 1st Edition 2019. - 250 p.
5. Atkinson, A. Kak ustoychivoye razvitiye mojet izmenit mir / A. Atkinson; per. s angl. V. N. Yegorova ; pod red. N. P. Tarasovoy. -M.: BINOM. Laboratoriya znanii, 201 - 455 s.